



## **XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I**

2026-yil 24-fevral

VII-23-31-5-78-K/26

Zarafshon shahar

### **2026-yil Zarafshon shahri bo'yicha alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig'implarning cheklangan stavkalarini oshirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1105-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-387-son qarori ijrosini ta'minlash va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 387-son qarori II bob 2-band "v" kichik bandida xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig'implarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Zarafshon shahrida 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'imlar stavkalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (A.Shoxmirzayev), shahar soliq inspeksiyasi (R.Baxronov) bilan birgalikda mazkur qaror o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o'rinbosari A.Shoxmirzayev hamda xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi R.Nurnazarov zimmasiga yuklansin.

**Kengash raisi**



**ERNAFASOV  
HUSNIDDIN  
BOLTAYEVICH**

Xalq deputatlari Zarafshon shahar  
Kengashining  
2026-yil 24-fevraldagi  
VII-23-31-5-78-K/26 -son qaroriga  
1-ilova

**Zarafshon shahrida 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana  
savdo qilish huquqi uchun yig'imlar stavkalari**

| T/r | Yig'im turi                                                                                                                                   | Bir oyga (so'mda)                                                                        |                                                  |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|
|     |                                                                                                                                               | O'RQ-1105-sonli<br>Qonun 9-ilovasiga<br>asosan belgilangan<br>chegaralangan<br>stavkalar | 2026-yil uchun<br>to'lanadigan yig'im<br>miqdori |
| 1.  | Alkogol mahsulotlarini<br>(bundan pivo mustasno)<br>realizatsiya qilish huquqi<br>uchun yig'im                                                | 300 000                                                                                  | 360 000                                          |
| 2.  | Umumiy ovqatlanish<br>korxonalari tomonidan<br>alkogol mahsulotlarini<br>(bundan pivo mustasno)<br>realizatsiya qilish huquqi<br>uchun yig'im | 150 000                                                                                  | 180 000                                          |